

**TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ SHAHAR 3-SONLI BOLALAR MUSIQA VA
SAN'AT MAKTABI TOMONIDAN KO'RSATILADIGAN O'QUV XIZMATLAR
TO'G'RISIDA SHARTNOMA _____**

Chirchiq sh.

«___» _____ 20___ y

3-sonli bolalar musiqa va san'at maktabi, keyingi o'rinlarda «BMSM» deb ataladi, nomidan ustav asosida faoliyat ko'rsatuvchi BMSM direktori A. Ulugbekov bir tomondan, fuqaro _____ keyingi o'rinlarda Ota-onalar deb ataladi, ikkinchi tomondan, mazkur shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. SHARTNOMA MAZMUNI

1.1. BMSM qabul qilish komissiyasining 20__- yil “___” _____dan ___ sonli bayonnoma qarori va BMSMning 20__- yil “___” _____dan ___ sonli buyrug'i asosida _____yo'nalishi ___sinfiga qabul qilingan _____, keyingi o'rinlarda “O'quvchi” deb ataladi, maktabda ta'lim olishi uchun qo'shma huquqlar va majburiyatlar haqida.

II. TO'LOV TARTIBI

2.1. Oylik to'lovi O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan eng kam oylik ish haqining _____% miqdorini tashkil etadi.

2.2. Ikkinchi va undan keyingi bola 3-sonli BMSMga qabul qilingan taqdirda oylik to'lovi O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan eng kam oylik ish xakining 70% gacha kamayadi.

2.3. Joriy yilning 1 yanvar kuniga belgilangan to'lov miqdori joriy yilning 31 dekabr kuniga qadar amal qilinadi.

2.4. Xizmat to'lovi oyning 10 sanasidan kechiktirmay 3-sonli BMSMning bankdagi xisob raqamiga o'tkaziladi. Xizmat to'lovlar 3-sonli BMSM buxgalteriyasi tomonidan ota-onalarga beriladigan kvitansiya asosida tasdiqlanadi.

2.5. O'quv to'lovlari 2 sentyabrdan 31 mayga qadar o'quv oylar va ta'til kunlari uchun olinadi.

2.6. Ta'lim olishni rad etish va o'quvchi tomonidan uzrli sabablarsiz mashg'ulotlarga qatnashmagan xolatlarda o'quv to'lovlari kaytarilmaydi.

III. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

3-sonli BMSM:

3.1. Mazkur shartnomaning I bo'limiga asosan xizmat ko'rsatish jarayonini tashkil qilish va bajarish.

3.2. BMSMlar uchun Davlat dasturiy talablari asosida ishlab chiqarilgan o'quv rejalari doirasida o'quvchi tanlagan yo'nalish bo'yicha mashg'ulotlarga halol va vijdonan munosabat qilgan holda bilimini rivojlantirishga kafolat berish.

3.3. Ta'lim jarayonida o'quvchining hayot va sog'ligiga javobgar bo'lish.

3.4. Ta'lim-tarbiya jarayonini amalga oshirish uchun sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena me'yorlariga to'lik javob beradigan xonalar ajratish, texnika va yong'in xavfsizligi qoidalariga muvofiq tashkil etish.

3.5. Ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan xolda uning insoniy qadr-qimmatlarini hurmat qilinishi, har qanday jismoniy va ruhiy

zo‘ravonlikdan asralishi, axloqqa oid, jismoniy va ruhiy sog‘ligini, xayajonlik tinchligini mustaxkamlashga sharoit yaratib berish.

3.6. Dasturlar va davlat talablariga muvofiq o‘quv dasturni o‘zlashtira olmagan o‘quvchiga nisbatan har xil turdagi pedagogik yordam ko‘rsatish.

3.7. Davolanish, kassalik, karantin yoki boshqa uzrli sabablarga ko‘ra mashg‘ulotlarni qoldirgan o‘quvchining joyini saqlash.

3.8. O‘quvchining individual xususiyatlariga ko‘ra unga nisbatan ta‘lim xizmatlari ko‘rsatilishi maqsadga muvofiqsizligi haqida ota-onalarga xabar berish.

3.9. Imkoniyat qadar kambag‘al va kam ta‘minlangan oilalardan bo‘lgan ist‘edodli o‘quvchini ijtimoiy himoya qilish.

Ota-onalar:

3.10. 31.12.2008 yilidagi “Bolalar musiqa va san‘at maktablarida bolalarnig o‘qishi uchun to‘lanadigan Ota-ona to‘lovini kiritish va foydalanish tartibi” ga asosan har oyning 10 sanasigacha ta‘lim xizmati uchun to‘lov o‘tkazish.

3.11. O‘quvchining BMSMga kirishi va o‘quv jarayonida o‘z vaqtida BMSM Nizomida ko‘zda tutilgan hujjatlarini taqdim etish.

3.12. O‘quv jadvaliga asosan o‘quvchini mashg‘ulotlarga tashrif buyurishini tashkil etish.

3.13. Mustaqil uy mashqlarini nazorat qilish.

3.14. Turar joy va telefon raqamlari o‘zgarganligi haqida BMSM rahbariga kechiktirmay xabar berish.

3.15. O‘quvchini uzrli sabablarga ko‘ra mashg‘ulotlarga kemaganligi haqida BMSM rahbariga xabar berish.

3.16. BMSM rahbariyati iltimosiga ko‘ra o‘qituvchilarning o‘quvchini axloqiga yoki uni o‘quvga munosabatiga da‘volari borligi haqida suxbatga kelish.

3.17. O‘quvchi tomonidan BMSM mol-mulkiga keltirilgan zararni O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga asosan to‘lash.

3.18. BMSM o‘quv xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha majburiyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan buyumlarni o‘quvchini o‘z xisobidan ta‘minlash.

3.19. O‘quvchi kasal bo‘lgan xolda (sog‘liqni saqlash muassasalari tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotnomaga asosan) to‘liq sog‘ayib ketgunga qadar mashg‘ulotlardan ozod etish.

3.20. BMSM rahbariyati, o‘qituvchilari va texnik xodimlariga hurmat ko‘rsatish.

3.21. Sinf va ota-onalar majlislarida qatnashish.

VI. TOMONLARNING HUQUQLARI

BMSM:

4.1. BMSM rivojlanish dastrurini aniqlash: mazmun, shakllar va ta‘lim xizmatlar usuli, o‘quv rejalarini tuzish, o‘quv dasturlarini, kitoblar va kurslarni tanlash.

4.2. Maktabining amaldagi Nizomiga asosan BMSM ish rejasini ishlab chiqish (ta‘til vaqti, dars jadvali).

4.3. O‘quvchiga nisbatan BMSM Nizomi va o‘quvchilarning odob-axloq qoidalariga asosan rag‘batlantirish yoki intizomiy jazo qo‘llash.

4.4. O‘z vaqtida to‘lovni amalga oshirmagan o‘quvchilarni maktab o‘quvchilari safidan chiqarish.

Ota-onalar:

4.5. BMSM rahbariyatidan mazkur shartnomaning I bo‘limida taqdim etilgan xizmat ijrosiga tegishli tashkiliy va ta‘minliy savollari bo‘yicha, o‘quvchining ta‘lim faoliyati va uning rivojlanish istiqboli, o‘qishdagi o‘zlashtirish, axloq va o‘qish mavzulariga nisbatan qobiliyati haqida ma‘lumotlarni taqdim qilinishini talab qilish.

4.6. Ota-ona va o'quvchi tegishli ravishda mazkur shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini amalga oshirgan xolda qo'shimcha ixtiyoriy fanni o'rganishga boshqalardan ko'proq huquqqa ega bo'lishadi.

V. SHARTNOMAGA O'ZGARTISH KIRITISH VA UNI BEKOR QILISH ASOSLARI

5.1. Mazkur shartnomada ko'rsatilib o'tilgan shartlarga, tomonlar o'zaro kelishilgan xolda yoki O'zbekiston Respublikasidagi qonungalariga asosan o'zgartishlar kiritilishi mumkin.

5.2. O'qishni rad etish paytiga qadar BMSM tomonidan ko'rsatilgan xizmatlari va aslida qilingan xarajatlarni to'lash shartiga ko'ra Ota-ona xohlagan payitda shartnomani bekor qilish huquqiga ega.

5.3. Ota-ona mazkur shartnoma bo'yicha to'lovlarni o'z vaqtida to'lamagan xolda BMSM shartnomani bir tomonlama bekor qilishi mumkin.

5.4. O'quvchi o'z axloqi bilan muntazam ravishda huquqbuzarliklarga yo'l qo'ygan, mashg'ulotlar jadvalini va BMSM o'quv jarayonini buzib, uchta ogohlantirishdan so'ng ko'rsatilib o'tilgan kamchiliklarni bartaraf etmagan holda BMSM shartnomani bekor qilishi huquqiga ega.

5.5. O'quvchining ota-onasiga BMSM tomonidan shartnoma bajarilishini rad qilish haqida yozma xabarnoma yuborilgan kundan shartnoma bekor qilindi deb hisoblanadi.

VI. SHARTNOMA AMAL QILISH MUDDATI VA BOSHQA SHARTLAR

6.1. Mazkur shartnoma tomonlar imzolaganidan so'ng amalga kiradi va amal muddati butun o'quv davri davom etadi.

6.2. Shartnoma ikki nusxada tuzilgan bo'lib, ikkala nusxa bir xil yuridik kuchga ega va taraflarga bir nushadan beriladi.

VII. REKVIZITLAR

Chirchiq shahar 3-sonli BMSM

INN: 205160513

Yuridik manzil: Chirchiq shahar

“Quyosh” MFY 1-kichik noxiya 81-uy

H/r: Moliya vazirligi G'aznachiligi

INN: 201122919

Hisob-kitob h/r: 400622860274197096600056004

Bank: Markaziy bank Toshkent sh.b.b.XKKM

Hisob-kitob h/r: 23402000300100001010

MFO: 00014

Ota-ona

Manzil _____

Tashkilot (mablag' o'tkazadigan)

INN: _____

Yuridik manzil: _____

Hisob-kitob h/r: _____

MFO _____ **OKONX** _____

Bank: _____

VII. TARAFLARNING IMZO VA MUHLARI

BMSM

Ota-ona

M.O'.

M. O'.